

TRANSMILLIY VA QO'SHMA TA'LIM DASTURLARINING MODELLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Aktamova Visola Baxtiyor qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti,

tayanch doktoranti

visolaaktamova23@gmail.com

+998978038010

Kalit so'zlar: transmilliy ta'lim (TNE), qo'shma ta'lim dasturlari, oliy ta'lim modellari, filial (branch campus), franchayzing, validatsiya, Joint Degree, Double Degree, akademik mobillik, ta'lim eksporti, sifat nazorati, O'zbekiston oliy ta'limi, GATS protokoli.

Annotatsiya: Ushbu maqolada globallashuv sharoitida oliy ta'limning xalqarolashuvi, transmilliy va qo'shma ta'lim dasturlarining nazariy-huquqiy asoslari hamda amaliy modellari atroflicha tahlil qilinadi. Muallif transmilliy ta'limning (TNE) asosiy xususiyatlarini o'rganib, uning zamonaviy iqtisodiyotdagi rolini ochib beradi (Knight, 2016; OECD, 2004). Maqolada franchayzing, validatsiya va filial modellarining o'ziga xos farqlari, qo'shma diplom turlari va ularning talabalar raqobatbardoshligini oshirishdagi roli yoritilgan (Wilkins & Huisman, 2012). Shuningdek, O'zbekiston ta'lim tizimida ushbu yo'nalishdagi islohotlar, mavjuda muammolar va istiqboldagi strategik vazifalar manbalar asosida tizimlashtirilgan (UNESCO, 2022).

Kirish

Globallashuv va transmilliy ta'limning mohiyati XXI asrda oliy ta'lim tizimi milliy chegaralardan chiqib, global miqyosda integratsiyalashmoqda. Bu jarayonning eng dinamik shakli transmilliy ta'lim (Transnational Education - TNE) hisoblanadi (Knight, 2016). Manbalarga ko'ra, TNE – bu ta'lim dasturi bir davlatda ishlab chiqilib, boshqa davlat hududida amalga oshiriladigan oliy ta'lim shaklidir (OECD, 2004).

Ushbu model shunchaki talabalarining xalqaro harakati emas, balki ta'lim mazmuni, o'qitish metodikasi va pedagogik texnologiyalarning mamlakatlararo "harakati"dir.

Globallashuv jarayonining mahsuli o'laroq, TNE xalqaro akademik integratsiyani ta'minlashda bosh ko'prik vazifasini o'tamoqda. Xalqaro miqyosda TNE "chegarasiz ta'lim" deb ham yuritiladi (WTO, 1995). TNE shakllanishiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar qatoriga globallashuvi, xalqaro mehnat bozori talabi, ta'lim xizmatlari eksporti va raqamli texnologiyalar rivoji kiradi (Altbach & Knight, 2007).

Transmilliy ta'limning nazariy va strukturaviy asoslari

Transmilliy ta'limning nazariy asosi shundan iboratki, bunda diplom beruvchi muassasa talaba istiqomat qiloyatgan davlatdan tashqarida joylashgan bo'ishi kerak (Knight, 2016). Bu tizimning o'ziga xosligi shundaki, u ta'lim dasturini xalqaro standartlarga moslashtirishga va akademik mobillikni maksimal darajada oshirishni talab qiladi.

TNE tizimida sifat nazorati o'ta muhim bo'lib, u ikki tomonlama – ham dasturni eksport qilayotgan universitet(donor), ham uni qabul qilayotgan tomon orqali amalga oshiriladi. Bu jarayon ta'limning global sifatini kafolatlashga xizmat qiladi (Wilkins & Huisman, 2012).

Transmilliy ta'limning asosiy modellari va ularning tahlili

Transmilliy ta'lim turli shakllarda namoyon bo'lib, manbalarda uning to'rtta asosiy modeli ajratib ko'rsatiladi:

1. Filial (Branch Campus) modeli: Bu modelda xorijiy universitet boshqa davlatda o'zining mustaqil tarkibiy bo'linmasini ochadi. Bu eng yuqori darajadagi investitsiya va ma'muriy mas'uliyatni talab qiladigan modeldir. Bunda donor universitet o'quv jarayonini, kadrlar siyosatini va o'quv rejalarini to'liq nazorat qiladi. Bu model akademik brendning nufuzini saqlab qolish uchun eng ishonchli usul hisoblanadi (Wilkins & Huisman, 2012), biroq qabul qiluvchi davlatdan katta yer maydonlari va infratuzilma talab etadi.
2. Franchayiz modeli: Mahalliy oliy ta'lim muassasasi (OTM) xorijiy universitet bilan tuzilgan kelishuv asosida uning tayyor o'quv dasturidan foydalanadi. Bunda darslar mahalliy OTM da o'tiladi, ammo talabaga beriladigan diplom xorijiy OTM tomonidan rasmiylashtiriladi. Bu model ta'lim xizmatlarini tezkorlik bilan kengaytirish imkonini beradi (Altbach & Knight, 2007).
3. Validatsiya modeli: Ushbu modelda mahalliy universitet o'z modelini ishlab chiqadi, ammo xorijiy nufuzli universitet ushbu dasturni tahlil qilib, o'z standartlariga mosligini tasdiqlaydi (validatsiyadan o'tkazadi). Bu mahalliy dasturning xalqaro miqyosda tan olinishini ta'minlaydi (Knight, 2016).
4. Masofaviy ta'lim modeli: Raqamli texnologiyalar yordamida onlayn yoki gibrid shaklda ta'lim beriladi. Bu model jismoniy infratuzilmaga ehtiyoj sezmaydi va global qamrovni ta'minlaydi (OECD, 2004).

Qo'shma ta'lim dasturlari: Akademik integratsiya vositasi

Qo'shma ta'lim dasturlari ikki yoki undan ortiq universitet hamkorligida tashkil etiladigan murakkab akademik loyihadir.

Manbalarda qo'shma dasturlarning uchta asosiy turi tavsiflanadi:

- Joint Degree (Qo'shma daraja): Bir necha OTM nomidan beriladigan bitta yagona diplom. Bu hamkor universitetlar o'rtasidagi o'ta yuqori ishonch va dasturlarning to'liq mosligini anglatadi.

- Double Degree (Ikki tomonlama daraja): O'qish yakunida talabaga har bir universitetdan alohida, jami ikki alohida diplom beriladi. Odatda bu dasturlar 2+2 yoki 3+1 sxemasi bo'yicha amalga oshiriladi, bunda talaba o'qishning yarmini mahalliy, qolgan yarmini xorijiy universitetda o'taydi.

- Dual Degree (Parallel o'qish): Talabaning parallel ravishda ikki xil yo'nalish yoki dastur bo'yicha o'qishi natijasida olinadigan ikki diplom.

Ularning asosiy maqsadi akademik integratsiyani kuchaytirish va talabalarga turli madaniy va ilmiy muhitda xalqaro tajriba berishdan iborat (Altbach & Knight, 2007).

TNE tizimining afzalliklari va strategik muammolari

Transmilliy hamda qo'shma dasturlarning afzalliklari ko'p qirrali bo'lib, ular nafaqat talaba, balki davlat iqtisodiyoti uchun ham foydalidir.

Afzalliklari: Talabalar uchun o'z vatanida turib xalqaro diplom olish, akademik mobillik mohiyatidan foydalanish va natijada global mehnat bozoriga to'g'ridan to'g'ri chiqish imkonini beradi. Shuningdek, mahalliy OTM larda raqobat muhiti shakllanib, ta'lim sifatining oshishiga xizmat qiladi (OECD, 2004).

Muammolar: Shu bilan birga tizimda qator qiyinchiliklar mavjud. Bular akkreditatsiya masalalari, diplomlarni o'zaro tan olishdagi byurokratik to'siqlar, xorijiy dasturlarning yuqori moliyaviy xarajatlari va sifat nazoratini masofadan turib ta'minlashning murakkabligi kiradi (UNESCO, 2022).

O'zbekistonda transmilliy ta'limning rivojlanish istiqbollari

O'zbekiston so'nggi yillarda oliy ta'limni xalqarolashtirish bo'yicha mintaqaviy yetakchiga aylanmoqda. So'nggi yillarda mamlakatimizda xorijiy OTM filliallari soni sezilarli darajada oshdi. O'zbekistonda filial modeliga misol sifatida Turin politexnika universiteti yoki Webster universitetini, qo'shma dasturlarga (Double degree) misol sifatida esa mahalliy universitetlarning Belarus yoki Rossiya universitetlari bilan hamkorligini ko'rsatish mumkin. Davlat siyosatida xalqaro hamkorlikni kengaytirish eng ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan.

Kelgusidagi rivojlanish istiqbollari quyidagi strategik maqsadlarni qamrab oladi:

1. Xalqaro reytinglarga kirish: O'zbekiston OTM larining xalqaro (QS, THE) reytinglarda o'rnini ta'minlash.
2. Ilmiy hamkorlik: Xorijiy hamkorlar bilan birgalikda qo'shma laboratoriyalar va ilmiy markazlar tashkil etish.
3. Raqamli platformalar: Ta'lim jarayoniga zamonaviy raqamli texnologiyalarni chuqur integratsiya qilish.
4. Ta'lim eksporti: O'zbekistonni mintaqaviy "ta'lim habi"ga aylantirish orqali ta'lim xizmatlari eksportini oshirish.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, transmilliy va qo'shma ta'lim dasturlari oliy ta'lim sifatini oshirishning eng samarali mexanizmi hisoblanadi. Turli modellar orqali amalga oshiriladigan ushbu tizim talabalarga global kompetensiyalarni egallash imkonini beradi. O'zbekiston sharoitida ushbu yo'nalishlarni rivojlantirish nafaqat ta'lim sifatini oshiradi, balki mamlakatning xalqaro maydondagi nufuzini mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Altbach, P. G., & Knight, J. (2007). The internationalization of higher education: Motivations and realities. *Journal of Studies in International Education*, 11(3–4), 290–305. <https://doi.org/10.1177/1028315307303542>

2. Knight, J. (2016). Transnational education remodeled: Toward a common TNE framework and definitions. *Journal of Studies in International Education*, 20(1), 34–47. <https://doi.org/10.1177/1028315315602927>
3. OECD. (2004). *Internationalisation and trade in higher education: Opportunities and challenges*. OECD Publishing.
4. UNESCO. (2022). *Global convention on the recognition of qualifications concerning higher education*. UNESCO Publishing.
5. World Trade Organization. (1995). *General Agreement on Trade in Services (GATS)*. WTO.